

POYTEXT SHAHARLARNING GEOGRAFIK JOYLASHUVIDA RELYEFNING AHAMIYATI

X.M.Bayqabilov – geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: poytaxt, shahar, shahar aholi punktlari, ma'muriy markaz, ekologiya, relyef.

Ключевые слова: столица, город, городские поселения, административный центр, экология, местность.

Key words: capital, city, urban settlements, administrative center, ecology, relief.

Fanning kuchi nimada?, degan savolga fransuz qomusi olimi Anri Puankarye: uning kuchi izlanishda, zabardast rus yozuvchisi Lev Nikolayevich Tolstoy amaliyotda qo'llanilishida deb javob bergan edi [1]. Biz quyidagi maqolada jahon poytaxt shaharlarining geografik joylashuvida relyefning ahamiyati hamda ko'chirilishida ekologiyaning roli haqida sharhlashni lozim topdik.

Barchamizga ma'lumki, poytaxt shaharlar mamlakatlar hayotida muhim rol o'ynaydi, ular nafaqat siyosiy (davlat boshqaruvi), balki iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, harbiy-strategik funksiyalarni ham bajaradi. Har qanday poytaxtning o'zagini shahar tashkil qilishini inobatga olgan holda xalqaro miqyosda shaharlar taraqqiyoti bo'yicha bugungi kunda olib borilayotgan o'zgarishlarni quyidagi faktlarda ko'rishimiz mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 2015- yilning 27- sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan Sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq "2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlari"dir. Unda BMTga a'zo davlatlar uchun mazkur masala bo'yicha 17 ta maqsad va 169 ta vazifa tavsiya etilgan. Dasturning 11-maqsadi aynan "barqaror shaharlar va aholi yashash joylari"ga tegishlidir [2].

Har bir fanning nazariy hamda amaliy asoslari takomillashib, rivojlanib borgan sari uning obyekti,

predmeti, vazifalari aniqlanib boradi. Tabiiyki, taraqqiyot davomida har bir fanda fanlararo integratsiya hamda differentsiatsiya jarayonlari kechadi, jahon poytaxt fani ham bundan mustasno emas. Biz bu jihatni poytaxt shaharlar misolida aniq aytishimiz mumkin. Boisi poytaxt shaharlar tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqot ishimizda tarixiy poytaxtshunoslik bilan iqtisodiy-ijtimoiy geografiya o'z navbatida shaharlar ekologiyasi bilan uzviy bog'liq.

Tabiiy sharoitni shaharsozlik nuqtayi nazardan o'rganishning ilmiy-uslubiy asoslarini poytaxt shaharlar misolida ishlab chiqish va umumiy xulosalar berish kelajakda poytaxt shaharlarni joylashtirishda ahamiyati katta. Shaharlar rivojlanishining tabiiy geografik jihatlari bilan rus olimlaridan V.V.Pokshishevskiy (1952, 1963), Y.G.Saushkin (1953), V.V.Vladimirov, A.S.Kryukov (1963), A.M.Kolotiyevskiy (1962), mamlakatimizda N.V.Smirnov, T.Raimov, A.Soliyev, G'.Pardayev, A.Sogatov, P.Qurbonov, M.Egamberdiyeva va boshqalar shug'ullanishgan. Ularning ilmiy ishlarida ayrim shaharlar shakllanishiga tabiiy geografik tavsif, shaharlarning geomorfologiyasi va mikroiklimiga ta'rif berilgan [6,7]. Ammo O'zbekistonda poytaxt shaharlar bo'yicha ilmiy ishlar mukammal darajada yakunlanmagan. Biroq, mamlakatimizda bir guruh shaharshunos olimlarimiz tomonidan shaharlar tarixiy taraqqiyoti davomida ilmiy meros yaratilgan (1-jadval).

1-jadval. 2002-2019-yillar oralig'ida O'zbekistonda shaharshunos tadqiqotchilarning ilmiy merosi

T/p	Shaharshunos tadqiqotchilar	Ilmiy merosi
1	Abdug'aniyev I., Abdug'aniyev O.	Shahar sistemalarini loyihalashtirishga geografik yondashuv (2002)
2	Atajanova U. Kadirov M.A.	Shaharlarni ijtimoiy-geografik o'rganishning ba'zi bir masalalari (2003) Shaharlar geografiyasi (2019)
3	Artikova F.Y., Mirsaidova S.K.	Система городской ирригации и условиях Ташкента – столицы Узбекистана (2010)
4	Bo'riyeva X.O.	Toshkent tarixiga oid tadqiqotlar (2003)
5	Mavlonov M.A.	Suv resurslarining shaharlar taraqqiyotiga ta'siri (2008)
6	Nuranov M.Z.	Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti – Nukus shahri shakllanishi va rivojlanishining ba'zi masalalari (2012)
7	Egamberdiyeva M.M.	Poytaxt shaharlar iqtisodiy geografik obyekti sifatida
8	Po'latov X.	Shaharsozlik tarixi (2008)
9	Qurbonov P.R.	Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning shaharlar shakllanishidagi ahamiyati (2010)

*Izoh: jadval manbalar asosida muallif X.M.Bayqabilov tomonidan tuzilgan.

Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda Davidovich V.G "Shahar va rayonlar planirovkasi" (1964), Vladimirov V.V., Mikulina YE.M., Yargina Z.N. "Shahar va landshaft: (muammolari, konstruktiv topshiriqlari va yechimlari)" (1986), Xorev B.S. Shaharlarning muammolari (1975), Legget R. Shaharlar va geologiya (1976), Kabakova S.I. "Shaharsozlikda shaharlar hududining baholanishi" (1973), Litvinskiy B.A. "O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari (joylashuv an'analari va zamonaviy modellari)" (1973) asarlarida shaharsozlikka oid ilmiy ma'lumotlar keltirilgan [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Tog', tog'oldi va tekislik (cho'l)larda joylashgan poytaxt shaharlar ham mavjud bo'lib, noqulay tog' sharoiti va issiqlikning meyoridan ortiq olishi bilan belgilanadi.

Afrika qurg'oqchilik girdobida qolgani haqida ko'p gapiriladi. Biroq bu qit'aga ham suv toshqinlari xavf solmoqda ekan. Ayniqsa, Gambia poytaxti Banjul suv

toshqinlari bilan to'qnash keladigan birinchi shahar ekani aytiladi. Okean sathi ko'tarilishi xavfi bois hukumat hozirdanoq sohil bo'yini mustahkamlashga kirishmoqda. Sohil hududlarini yo'qotish Gambiyaga juda ham qimmatga tushadi. Chunki mintaqada sholizorlar, baliqchilik markazlari va sayyohlar uchun diqqatga sazovar joylar joylashgan. "Forbes" jurnali Banjul shahrini 2100 yilgi "arvoh shaharlar" ro'yxatiga kiritdi.

Poytaxt shaharlarning cho'kish sm hisobida:

1. Jakarta yiliga 2 – 5 sm; 2. Bangkok yiliga 3 – 4 sm; 3. Dakka yiliga 5 sm; 4. London yiliga 30 mm gacha; 5. Monako yiliga 10 – 12 mm; 6. Lagos yiliga 15 mm gacha cho'kayapti.

Shaharlarning cho'kish sabablari:

1. Yerning epeyrogenik davriy harakati; 2. Shaharlarning kengayishi ostki qismining bo'shligi; 3. Shahar ostidan vaqtida turli ma'danlarni qazib olinishi; 4. Yer osti suvlari ta'sirida; 5. Yomg'ir suvlari orqali

surilmalarning vujudga kelishi; 6. Yer osti metro qurish va kommunikatsiya ishlari; 7. Koinotni o'zlashtirish va kosmik kema uchirilishi va hokazo.

Afrikaning eng qadimgi davlatlaridan biri Efiopiyaning poytaxti tez-tez o'zgarib turgan. Poytaxt 1883-yilda Avstraliyadan evkalipt daraxtlari olib kelingandan buyon o'zgarmay kelmoqda. Evkalipt juda tez o'sadigan daraxt. Avvallari qayerda ko'p bo'lsa, o'sha joy poytaxt bo'lgan. Daraxtlar o'tinga kesilib ketavergach, ya'ni daraxt tugagach, poytaxt ham o'zgargan. Avstraliyadan Evkalipt daraxtlari olib kelinib, Addis-Abebagga ekilavergan. Daraxt bu yoqdan kesilib, u yoqdan o'savergan. Daraxt tugamagach, poytaxt ham o'zgarmay qolavergan [3]. Odatda mamlakat ishg'ol qilinganida yoki saltanat parchalanganida poytaxt shahar ham o'zgargan. Ayniqsa, o'tgan asr boshlariga kelib ko'pgina davlatlarda poytaxtlar o'zgara boshladiki, tez orada bu siyosiy amaliyot odatiy tus oldi. Xo'sh, nega shunday bo'ldi? Nima uchun kattagina mablag' sarflagan holda davlat organlarini yangi joyga

ko'chirishga zarurat tug'ildi? Yangi shaharni tanlash orqali poytaxtning muammolarini hal qilish mumkinmi? Poytaxtni o'zgartirgan davlatlar ko'zlagan maqsadlarining bariga erisha olganmi? Keling ana shu savollarga javob qidirib ko'ramiz. Poytaxtning ko'chirilishiga bir necha sabablardan kelib chiqqan holda qaror qilingan. Ularning asosiylaridan ekologik sabab tufayli o'zgargan poytaxt shaharlarni quyida sanab o'tamiz:

Birinchisi, 1961-yilda Xati dovuli Britaniya Gondurasi poytaxti Beliz shahriga juda katta zarar yetkazdi. Tabiiy ofat natijasida ko'plab davlat hujjatlari yo'q bo'ldi. 1970-yilda poytaxtni mamlakatning markaziy qismida joylashgan Belmopan shahriga ko'chirishga qaror qilindi. 1973-yilda Markaziy Amerikadagi ushbu kichkinagina davlatning nomi Britaniya Gondurasidan Belizga o'zgartirildi, 1981-yilda esa mustaqillikka erishdi [5]. Quyida poytaxti o'zgargan mamlakatlar ro'yxati XX asrning boshlaridan to hozirgi davrimizgacha poytaxti o'zgargan mamlakatlar (2-jadval).

2-jadval. Poytaxti o'zgargan mamlakatlar ro'yxati

№	Sobiq poytaxtlar	O'zgarish sanasi	Hozirgi poytaxtlar nomi	Mamlakat nomi
1	Melburn	1908-yil	Kanberra	Avstraliya
2	Kalkutta	1911-yil	Dehli	Hindiston
3	Sankt-Petrburg	1919-yil	Moskva	Rossiya
4	Smolensk	1919-yil	Minsk	Belarus
5	Istanbul	1923-yil	Anqara	Turkiya
6	Kristianiya	1924-yil	Oslo	Norvegiya
7	Zinder	1926-yil	Niamey	Niger
8	Samarqand	1930-yil	Toshkent	O'zbekiston
9	Xarkov	1934-yil	Kiyev	Ukraina
10	Kaunas	1940-yil	Vilnyus	Litva
11	Sen-Lui	1958-yil	Nuakshot	Mavritaniya
12	Rio de-Janeyro	1960-yil	Brazilia	Braziliya
13	Karachi	1969-yil	Islomobod	Pokiston
14	Beliz	1970-yil	Belmopan	Beliz
15	Dor us-Salom	1973-yil	Dodoma	Tanzaniya
16	Abijan	1983-yil	Yamusukro	Kot-d'Ivuar
17	Bonn	1990-yil	Berlin	Germaniya
18	Lagos	1991-yil	Abuja	Nigeriya
19	Alma-Ata	1997-yil	Astana	Qozog'iston
20	Rangun (Yangon)	2005-yil	Neypido	Myanma
21	Jakarta	2024-yildan	Nusantaroy	Indoneziya

*Izoh: jadval manbalar asosida muallif X.M.Bayqabilov tomonidan tuzilgan.

Umuman olganda, tabiiy sharoit va tabiiy resurslar shaharlar shakllanishi va rivoilanishining eng asosiy omili hisoblanadi. Qadim zamonlarda ham shaharsozlikda joyning tabiiy sharoiti hisobga olingan. Shahar manzilgohlari voki qo'rg'onlar harbiy strategik ihatdan qulay bo'lgan tepaliklarda, qattiq tog' jinslaridan iborat bo'lgan darvo qirg'oqlarida, serhosil alluvial tuproqli verlarda, sug'orma dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq shaharlar darvolarning quvilish qismida iovlashgan. Ana shunday tabiiy sharoiti qulay bo'lgan hududlarda iovlashgan shaharlarga zamonlar silsilasiga dosh berib, hozirgi kungacha rivoilanib kelmoqda. Shaharsozlik nuqtaviy nazardan, eng avvalo relyef va gidrografik to'rning ahamiyati katta. Bevosita shaharlarning shakllanishi va rivoilanishida, ularning loviha – qurilishida, eniga va bo'viga o'sishida joyning ver usti tuzilishi (relyefi), sevmik faolligi va boshqa geomorfologik xususiyatlari katta mazmuniga ega. Bunda joyning baland-pastligi va qiyaligi kabilar e'tiborga olinadi. Relyef bilan hududning geologik xususiyatlariga bog'liq shakllangan mineral

xom-ashyo resurslari shaharsozlikning eng faol omili hisoblanadi. Jumladan, Robert Legget shaharsozlikda joylarning topografiyasi va geologik tuzilishiga katta ahamiyat beradi. U dunyoning, asosan Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlari qadimiy shaharlari misolida shaharlar joylashishiga ver usti tuzilishi, iqlim, gidrogeologiya kabi tabiiy omillarning ta'sirini qiziqarli ma'lumotlar asosida keltirilgan.

Xulosalab aytishimiz mumkin-ki, mamlakatlarning mustaqillikka erishishi va muayyan davlatlarning bo'linib, alohida davlat maqomiga ega bo'lishi suveren davlatlar sonining ortishiga, yoki aksincha, orollarda joylashgan ba'zi mamlakatlarning suv ostida qolishi (tabiiy ofatlar sababli) hamda mamlakatlarning o'zaro birlashuvi (siyosiy sabablarga ko'ra) tufayli ular sonining kamayishiga olib keladi. Demak mamlakatlar soni suveren davlatlar sonidan hamisha ko'p va dinamik (o'zgaruvchan) xususiyatga egaligi bilan izohlanadi. Bu o'zgarish albatta poytaxt shaharlarni ham chetlab o'tmaydi, albatta.

Adabiyotlar

1. To'xliyev N. Bozorga o'tishning mashaqqatli yo'li. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003, 180-b.
2. Arzikulova D. Zamonaviy shaharlar. - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2019, 80-b.
3. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 7-жилд. Парчин–Солик. –Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» ДИН, 2004.704-б.
4. Миллер Б.В. Персидско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. -М.: 1953.

5. Зыкина О.В., Бурлуцкая Л.А., Гальперина Г.А., Иванова Н.В. Все столицы мира. – М.: “Вече”, 2004. –С. 592 с. (илл 16).

6. Горкин А. Дунё мамлакатлари. Энциклопедия. -Т.: «Давр нашриёти», 2013. 296-б.

7. Мамадалиев Р. Дунё мамлакатлари. -Т: «Muharrir», 2012. 500-б.

8. Нигматов А.Н., Байкабилов Х.М. Жаҳон мамлакатлари номларининг географик ва топонимик асослари. Монография. - Қарши: “Насаф” НМИУ, 2021. 156-б.

REZYUME. Ushbu maqolada jahon poytaxt shaharlarining geografik joylashuvida relyefning ahamiyati haqida soʻz boradi. Shuningdek, poytaxt shaharlar tadqiqiga bagʻishlangan tadqiqot ishimizda tarixiy poytaxtshunoslik bilan iqtisodiy-ijtimoiy geografiya oʻz navbatida shaharlar ekologiyasi bilan uzviy bogʻliqligi asoslangan.

РЕЗЮМЕ. В статье излагается информация о значении рельефа в географическом расположении мировых столиц. Также в нашей исследовательской работе, посвященной изучению столичных городов, установлено, что историческое капиталоведение и экономико-социальная география, в свою очередь, неразрывно связаны с экологией городов.

SUMMARY. The article presents about the importance of relief in the geographical location of world capital cities. Also, in our research work dedicated to the study of capital cities, it was established that historical capital studies and economic-social geography, in turn, are inextricably linked with the ecology of cities.

ҚИЗИЛҚУМДА СОДИР БЎЛГАН ИҚЛИМ ЎЗГАРИШЛАРИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ

М.Б.Жалилов – таянч докторант

Навоий давлат педагогика институтини

Таянч сўзлар: Лавлакон, плювиал, Устюрт, Бўкантов, Томдитов Копеттоғ, Окчадарё, Жанадарё, Кувондарё, Қозали бўғози, Эчкиликсой, Гужайли, Моҳондарё, Тайқир.

Ключевые слова: Лавлакон, плювиал, Устюрт, Бокантов, Томдитов Копеттоғ, Окчадарья, Джанадарья, Гувондарья, Қозали Бўзоғи, Эчкилсой, Гужайли, Моҳондарья, Тайқир.

Key words: Lavlakon, pluvial, Ustyurt, Bokantov, Tomditov Kopettog, Okchadarya, Janadaryo, Guvondarya, Kazali Bogozi, Echliksoy, Gujayli, Mokhondaryo, Tayqir.

Чўл ҳудудларида, жумладан, қуйи Зарафшон, Амударёнинг ўрта ва қуйи оқимлари ҳудудларида, Орол денгизи атрофларида ва Каспий бўйларида сўнгги музлик даври ва эҳтимол, ундан кейинги даврларда ҳам унча илиқ бўлмаган, нисбатан нам, ярим қуруқ табиий шароитлар ҳукмрон бўлган.

Маълумки, сўнгги палеолитнинг (милоддан аввалги 40-12 минг йилликлар) охирига келиб замонавий одамлар деярли барча табиий зоналарни эгаллаганлар. Аксинча, охириги уч-тўрт минг йилликларда жиддий континентал иқлим ўзгаришлари туфайли Қизилқумнинг қумли ҳудудларида одамлар гавжум тарзда яшамайдиган бўлди. Ушбу ҳудудларда кейинги даврларда кам сонли аҳолининг доимий ёки мавсумий яшаши қорвачилик, тоғ саноати (мис, феруза ва ҳ.к. казиб олиш), қаровон йўлларида хизмат кўрсатиш ва ҳ.к. билан боғлиқдир.

Иқлим ҳўжаликнинг хусусиятларига энг кучли таъсир кўрсатадиган асосий омиллардан биридир. У бевосита (совуқ, илиқ, қуруқ, намгарлик) эмас, балки овчилик ва овчиликнинг асосий омиллари бўлган ўсимликлар олами ва ҳайвонот дунёси орқали таъсир этади. Одамнинг ушбу компонентларга тобелиги тарих қадимийлашган сари кучайиб боради [1]. Иқлимнинг ёки ландшафтлар ўзгаришининг муҳим белгиси ибтидоий маданиятларнинг тарқалиши ареалларининг қисқариши ёки кенгайиши билан белгиланади. Иқлим ўзгаришларининг яна бир белгиси маданиятлар характерининг ўзгариши билан ҳам белгиланади [2].

Зарафшон ҳавзаси табиати тарихи Ўрта Осиёнинг бошқа ҳудудларидаги ландшафтлар ҳосил бўлиши билан бевосита боғлиқдир. Музлик даврдан кейин бир мартагина иқлим ўзгариши содир бўлган. Бу даврда иқлим анчайин исийди ва бу исийш 2 минг йил давом этган (милоддан аввалги V-III минг йиллик). Ўрта Осиё ҳудуди тахминан 10300 йиллар муқаддам ёғингарчиликнинг кўпайиши сабабли намлик фазаси бошланади. Аммо, 3800 йиллар бурун яна қуруқ давр бошланиб, бу иқлим шароити кичик ўзгаришлар билан ҳозирги қунгача давом этиб келмоқда [3].

Археолог А.Виноградов Қизилқум ҳудудида мезолит (милоддан аввалги 12-7 минг йилликлар) даврига оид ёрқин ёдгорликларнинг учрамаслигига (сўнгги мезолит даври материаллари бундан мустасно) ва аксинча, неолит даври материалларининг кўпчилигига асосланиб ибтидоий одам учун ноқулай бўлган шароитлардан қулай Лавлакон плювиали босқичидаги иқлим шароитларига ўтиш даври хронологиясини милоддан аввалги 8-7 минг йилликлар билан белгилган.

Совуқдан қуруқ ҳамда илиқ иқлим ва нисбатан нам шароитларига ўтиш бундан 8 минг йиллар бурун бошланган. Лавлакон плювиалининг ландшафт-иқлимий шароитлари Қизилқум ва Устюртда ибтидоий одамнинг кенг тарқалишига олиб келди. Лавлакон қўли соҳилларида мезолит ва бронза даврларига оид юздан зиёд ҳамда шу ва ундан кейинги даврларга оид 300 дан зиёд пунктлар аниқланган [4]. Ўттиздан зиёд топилма жойлар Бўкантов, Томдитов ва Копеттоғ ҳудудларида аниқланган [5]. Ушбу топилма жойларнинг материаллари хронологик жиҳатдан милоддан аввалги VI-V минг йилдан II минг йилликларгача бўлган йирик даврларни ўз ичига олади.

Амударёнинг Окчадарё, Қорақамиш ва Оролбўйи, Сирдарёнинг Жанадарё, Кувондарё, Қозали бўғози, Зарафшоннинг Эчкиликсой ва Дарёсой ўзанлари ҳамда жанубда Гужайли, Моҳондарё, Тайқир бўғозлари бўлганлиги аниқланган. Ўрта Осиё ҳудудлари қадимги гидрографик тизимининг ўзгаришининг асосий сабаби дарёлар суви миқдорининг ўзгаришидир ва бу ўзгаришлар, албатта, иқлим шароитлари билан боғлиқдир. Дарёлар кетидан одамлар ҳам кўчиб борганлар [6]. Сўнгги плейстосеннинг иккинчи ярмида Каспийбўйи ҳудудларида совуқ ҳамда қуруқ иқлим шароитлари ҳукмрон бўлади. Бу даврда денгиз сатҳининг пасайиши қуруқликдан оқиб тушадиган сув оқимларининг камайиши ва парланишнинг кучайиши билан боғлиқ бўлган. Милоддан аввалги III-II минг йилликларда замонавий типдаги қуруқ ҳамда иссиқ иқлим шароитлари қарор топади. Иқлим шароитларининг ёмонлашуви қўлларнинг йўқолиши ёки шўрлашуви, йирик дарёлар системасининг тушқунликка учраши билан Қизилқум ҳамда Устюрт ҳудудларида аҳоли сонининг камайишига олиб келди. Бу даврнинг иқлими монотон ўта қурғоқ ҳолатида бўлмасдан, у ёки бу даражада қурғоқчиликлар бўлиб турганлиги аниқланган.

Ўрта асрларга келиб XIII асрдан XIX асрнинг биринчи ярми Европа ва Шимолий Америкада “кичик музлик даври” номи билан машҳур. Кичик музлик даврида Ўрта Осиё тоғларидаги совиш музликлар узунлиги ва майдонининг катталашувида ўз аксини топди ва бу XIX асрнинг биринчи ярмига келиб ўзининг кульминацион нуктасига етди [7]. Ўрта Осиёнинг текисликларида совиш, парланишнинг камайиши ва эҳтимол, атмосфера чўқиндиларининг кўпайиши табиий жараёнлардаги кўплаб ва турли туман ўзгаришларга сабаб бўлди. Дарёларда сув ҳажми кўпайди. Сирдарё Оролга ҳозиргидан кўра икки марта